

MARKAZIY OSIYO DAVLATLARINING XAVFSIZLIK SIYOSATI

Olimjonov Oyatbek Bunyodjon o'g'li**O'zbekiston Respublikasi Tashqi ishlar vazirligi qoshidagi****Jahon Iqtisodiyoti va diplomatiya universiteti****Xalqaro munosabatlar fakulteti 1 kurs talabasi****Oyatbekolimjonov222@gmail.com****+998946711307****<https://doi.org/10.5281/zenodo.15833368>**

Annotatsiya: Mazkur ilmiy maqolada Markaziy Osiyo davlatlarining xavfsizlik siyosatidagi dolzarb muammolar, xususan, terrorizm va diniy ekstremizm, narko-biznes hamda tashqi ta'sirlarning ahamiyati haqida qisqacha ma'lumotlar berilib, ularni bartaraf etish choralari tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: Xavfsizlik tizimi, terrorizm va ekstremizm, narkotrafik, geosiyosiy ta'sir, Kollektiv xavfsizlik shartnomasi tashkiloti (ODKB), Tolibon, radikallashuv, diniy ta'lim, onlayn radikllashuv, qochqinlar muammosi, kiberxavfsizlik.

Аннотация: В данной научной статье представлены краткие сведения о актуальных проблемах в политике безопасности стран Центральной Азии, таких как терроризм и религиозный экстремизм, наркобизнес, а также о значении внешних факторов. Проведен анализ мер по их устранению.

Ключевые слова: система безопасности, терроризм и экстремизм, наркотрафик, геополитическое влияние, Организация Договора о коллективной безопасности (ОДКБ), Талибан, радикализация, религиозное образование, онлайн-радикализация, проблема беженцев, кибербезопасность.

Annotation: This scientific article provides brief information about the pressing issues in the security policy of Central Asian countries, specifically terrorism and religious extremism, narco-business, and the significance of external influences. Measures to address these issues are analyzed.

Keywords: security system, terrorism and extremism, narcotrafficking, geopolitical influence, Collective Security Treaty Organization (CSTO), Taliban, radicalization, religious education, online radicalization, refugee problem, cybersecurity.

Markaziy Osiyo davlatlarining xavfsizlik siyosati mintaqaning ichki va tashqi xavfsizlik tahdidlariga qarshi kurashishga, davlatlarning suvereniteti, hududiy yaxlitligini himoya qilishga, hamda xalqaro barqarorlikni ta'minlashga qaratilgan. Ushbu siyosat mintaqaviy va global xavfsizlik muammolarini hisobga olgan holda rivojlanib, ko'p qirrali yo'nalishlarda amalga oshiriladi.

Markaziy Osiyo davlatlari uchun xalqaro terrorizm va diniy ekstremizm eng jiddiy tahdidlardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, "Iroq Shom Islom Davlati" (ISHID) va boshqa ekstremistik guruhlar mintaqaviy xavfsizlikka salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Ushbu guruh xalqaro terroristik tashkilot bo'lib, o'zini sunniy jihodiy harakat sifatida ta'riflaydi. Uning asosiy maqsadi xalifalik o'rnatish va musulmon dunyosini yagona shariat boshqaruvidagi davlat ostida birlashtirish edi. Tashkilotning faoliyati global miqyosda vahshiylik, zo'ravonlik va inson huquqlarining jiddiy buzilishi bilan bog'langan. ISHID o'z faoliyati davomida ko'plab zo'ravonliklarni sodir etgan. Ular odamlarni ommaviy qatl qilish, shafqatsiz jazo usullarini qo'llash, qul savdosi va madaniy yodgorliklarni yo'q qilish kabi jinoyatlarni amalga oshirgan.

ISHIDning onlayn targ'iboti global miqyosda terrorchilik xurujlariga ilhom berdi va ko'plab mamlakatlarda amalga oshirildi (Parij, Brussel, Manchester va boshqalar). Tashkilot o'zining hududlarini yo'qotgan bo'lsa-da, uning yer osti yacheykalari hali ham Iroq, Suriya, Afg'oniston va boshqa hududlarda faoliyat yuritmoqda. Ayniqsa, ISHIDning "Khorasan viloyati" (ISKP) Afg'oniston va Markaziy Osiyo uchun xavf tug'dirmoqda. Shu bilan birga, Afrika va Janubi-Sharqiy Osiyo davlatlarida ham ISHIDga sodiq guruhlar va jangarilar mavjud. Tashkilot terrorizm va ekstremistik g'oyalarni onlayn platformalar orqali tarqatishda davom etyapti. ISHID va Markaziy Osiyo o'rtasidagi munosabatlar xavfsizlik nuqtai nazaridan muhim ahamiyatga ega. ISHIDning mintaqaga ta'siri, asosan, mintaqadagi ayrim ekstremistik guruhlar bilan aloqalari va O'rta Osiyodan kelib chiqqan jangarilar faoliyatiga bog'liq.

Jumladan, 2010-yillarning o'rtalarida Markaziy Osiyoning Qozog'iston, O'zbekiston, Qirg'iziston, Tojikiston kabi davlatlaridan yuzlab odamlar Iroq va Suriyadagi ISHID safiga qo'shilgani ma'lum bo'lgan. Bu jangarilar ISHID tarkibida urush olib borgan va tashkilotning mafkurasini tarqatishda ishtirok etgan. Ularning aksariyati internet orqali radikalashgan va o'z mamlakatlaridan Suriyaga safar qilib, ekstremistik faoliyatga qo'shilgan. Shu sababli ham terrorizm Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizlik tizimi uchun begona tushuncha emas, balki unga eng yaqin tahdid hisoblanadi. Biroq, bu tahdidga qarshi kurashish uchun faqat harbiy tizimga murojaat qilish kamlik qiladi. Mintaqada ISHID va boshqa ekstremistik guruhlar tahdidini bartaraf etish borasida avvalo yoshlar va ishsizlikka qaratilgan o'ziga xos dastur ishlab chiqish kerak. ISHID va boshqa radikal guruhlar ko'pincha yoshlarni nishonga oladi, ayniqsa ishsizlik yoki iqtisodiy qiyinchiliklardan aziyat chekayotganlar ular uchun ajoyib o'lja bo'ladi. Yoshlar uchun innovatsion texnologiya va raqamli sohalarda rivojlanish imkoniyatlarini yaratish, ularni band qilish, mahalliy ishbilarmonlarni va xalqaro tashkilotlarni jalb qilib, yoshlar uchun iqtisodiy imkoniyatlar yaratish, yoshlarni sport va ijodiy faoliyatga jalb qilish radikalizmdan uzoq turishga yordam beradi. Bundan tashqari, ISHID va boshqa terroristik guruhlar o'z mafkurasini diniy asoslarda targ'ib qiladi. Shuning uchun mahalliy ulamolarni bu jihodiy g'oyalarga qarshi kurashda jalb qilish zarur. Yaqin davrgacha, Markaziy Osiyo davlatlari siyosatida islomiy ta'lim tarbiya va madaniyatga keskin cheklovlar qo'yildi.

Bu cheklovlardan maqsad albatta ekstremizmdan himoya edi. Biroq, bu siyosat kutilgan natijani bermadi, balki vaziyatni yanada murakkablashtirdi. Ushbu cheklovlar bir tomondan ISHID va boshqa ekstremistik guruhlar uchun "musulmonlar xorlanmoqda" degan bahona asosida o'z safini kengaytirish imkoniyatini bergan bo'lsa, ikkinchi tomondan yoshlarning diniy savodxonlik darajasi kamaygani va bu sababli ularning terroristik guruhlar iskanjasiga tushish ehtimolini kuchaytirdi. Masalan, 2010-yillarda O'zbekistondagi hijob va diniy liboslarga cheklovlar yohud 2010-yillar davomida Tojikistondagi masjidlar sonini qisqartirish uchun qilingan harakat hamda 2011-yildagi Tojikiston vijdon erkinligi haqidagi qonunda 18 yoshga to'lmagan shaxslarning masjidga kirib namoz o'qishining taqiqlanishi ushbu siyosat namunalari. Ushbu cheklovlar Davlat xavfsizligini ta'minlash yuzasidan amalga oshirilgan bo'lsada, ekstremizmga aloqasi bo'lmagan ayrim musulmon jamoatchilik hamda ayrim gumanitar tashkilotlar tomonidan diniy erkinlikni cheklash deb talqin qilindi. Xususan, Tojikistondagi diniy cheklovlar, ayniqsa masjidlarga qo'yilgan cheklovlarni Human Rights Watch (HRW) va Amnesty International(AI) kabi tashkilotlar o'z bayonotlarida qattiq tanqid ostiga olgan. Ushbu cheklovlar musulmon aholining hukumatga nisbatan radikal qarashlarni shakllanishiga asos bo'lib xizmat qilgan. Bu omil esa "ISHID" kabi terroristik tashkilotlar

uchun foydali bo'ldi. Shu sababli ham Markaziy Osiyo davlatlari ushbu xatolarni qilmasligi zarurdir.

Hukumat boshlang'ich diniy ta'limni cheklashi emas, balki uni rag'batlantirishi kerak. Yosh avlod ISHID kabi terroristik guruhlarining yolg'on diniy asoslariga aldanmaslik uchun ma'lum diniy bilimga ega bo'lmog'i darkor. Bu borada hukumat yoshlarga Islomning tub go'zal mohiyatini yetkaza oladigan maxsus pedagog xodimlar avlodini yetishtirishi hamda ularni tayyorlash uchun alohida maxsus oliygohlarni tashkil etishi yoki mavjud oliygohlarda shunday yo'nalishlar shakllantirilishi lozim. Shunday xolatda Tojikistonda bo'lganidek, ishonchsizlik va shubxa tufayli dars o'tish yoki ma'ruza qilish uchun imomlarni ro'yxatdan o'tkazish zarurati yuzaga kelmaydi. O'z navbatida, masjidlardagi imomlar ham musulmon aholiga islom falsafasi mohiyatini hamda terrorizm nima-yu islom nima ekanligini yetkazishlari kerakdir. Kiberxavfsizlik va onlayn radikalizmga qarshi kurashda yangi texnologiyalarni qo'llash ham ahamiyatli yo'l sanaladi. Negaki, ISHID va boshqa ekstremistik guruhlar internet va ijtimoiy tarmoqlarni global jihad harakatini rivojlantirishda foydalanadi. Shuning uchun Onlayn kuzatuv va tahlil texnologiyalarini takomillashtirish kerak: Sun'iy intellekt asosidagi kuzatuv tizimlari orqali onlayn targ'ibotlarni aniqlash va ularni blokirovka qilish choralari kuchaytirilishi lozim. Bundan tashqari, onlayn ijtimoiy kampaniyalar yordamida yoshlarni radikalizm tahdididan ogohlantirish va sog'lom axborot oqimini yaratish ham samarali yechim bo'lishi mumkin. Terrorizmga qarshi kurashda reabilitatsiya va reintegratsiya dasturlari ham muhim o'rin tutadi. Markaziy Osiyo davlatlari ushbu dasturlar faoliyatini kengaytirmoqda.

O'zbekistonning "Mehr" va Qozog'istonning "Jusan" operatsiyalari buning yorqin dalili bo'libgina qolmay, terrorizm va ekstramizm iskanjasidan qutilib, javobgarlik tufayli vataniga qaytishdan qo'rqqan insonlar uchun ham ushbu operatsiyalar ajoyib yo'lchi vazifasini o'tadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Endilikda, antiterror siyosatida, ushbu mintaqa terrorizm yo'lidan qutulgan insonlarni jamiyatga qaytarish borasida ko'plab islohotlar qilishi lozimdir. Jumladan, ularga huquqiy, moliyaviy va psixologik yordamlar ular uchun bu borada muhim turtki bo'la oladi. Xullas, Markaziy osiyo davlatlari o'z milliy xavfsizlik xizmatlari va ichki ishlar organlari orqali terrorizmga qarshi kurashish choralarini kuchaytirgan. O'zbekiston, Qozogiston, Tojikiston, Turkmaniston va Qirg'iziston terrorizm va ekstremizmga qarshi kurashda kuchli xavfsizlik choralarini ko'rgan va xalqaro hamkorlikni kengaytirgan. Shu bilan birga, ular radikallashuvning oldini olishda yanada dadil choralar ko'rishi va aholini diniy ma'rifatini oshirish orqali zarur maqsadlarga erishish uchun yanada muhim qadamlar tashlashi lozim.

Markaziy Osiyo davlatlari xavfsizlik siyosatida terrorizmdan boshqa muammolar ham yo'q emas. Jumladan, Narkotrafik va giyohvand moddalar savdosi katta ahamiyatga ega. Markaziy Osiyo davlatlari (O'zbekiston, Qozog'iston, Qirg'iziston, Tojikiston, va Turkmaniston) o'z geografik joylashuvi tufayli narkotik savdosi va tranziti bilan bog'liq muammolarga duch kelmoqda. Mintaqa Afg'oniston bilan chegaradosh bo'lib, bu davlat dunyodagi eng katta opiat ishlab chiqaruvchilardan biri hisoblanadi. Shu sababli, narkotik moddalar, ayniqsa, gashish (kannabis) Afg'onistondan Markaziy Osiyo orqali Rossiya va Yevropaga yetkaziladi. Markaziy Osiyo davlatlari Afg'oniston bilan bevosita chegaradoshligi mintaqani narkotik moddalarni tranzit qilish uchun muhim yo'lga aylantiradi. Afg'onistondagi giyohvand moddalar ishlab chiqarish ayniqsa 2001-yildan keyin, Tolibonning qisman hokimiyatdan chetlashtirilishi bilan ortdi. Afg'onistondan narkotik moddalar O'zbekiston,

Tojikiston, Qirg'iziston va Qozog'iston orqali Rossiya bozoriga, keyinchalik esa Yevropaga yetib boradi. Bu yo'nalish "Shimoliy yo'nalish" deb ataladi va xalqaro narkotik savdosining asosiy yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Narkotik savdosi Markaziy Osiyo davlatlaridagi iqtisodiy va siyosiy barqarorlikka tahdid soladi. Ushbu savdo ko'pincha jinoyat sindikatlari va korrupsiya bilan bog'liq bo'lib, davlat institutlarining zaiflashishiga olib keladi.

Buning ustiga, Markaziy Osiyoning tog'li va keng hududlari chegaralarni nazorat qilishni qiyinlashtiradi. Ayniqsa, Tojikiston-Afg'oniston chegarasi narkotik moddalarning o'tishi uchun asosiy yo'l hisoblanadi, bu yerda narkotik savdosini to'xtatish uchun xalqaro yordam ham yetarli bo'lmagan. Mintaqadagi ayrim davlatlar narkotik savdosi bilan bog'liq korrupsion jarayonlar bilan kurashish uchun kuchli boshqaruv tizimini mustahkamlashi lozim. Chunki, Korrupsiya narkotik moddalar bilan kurashning samaradorligini pasaytiradi va jinoyatchilikning kengayishiga yordam beradi. Shu bilan birga, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida huquqni muhofaza qilish organlari o'rtasidagi hamkorlik mustahkamlanishi zarur. Narkotik savdosini to'xtatish uchun davlatlar o'rtasida axborot almashinuvi va tezkor choralar ko'rish muhimdir.

References:

Используемая литература:

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (UNODC) hisoboti.2004-yil.Noyabr.New York
2. (www.unodc.org > Afghanistan_opium_survey_2004_web)
3. BMTning Giyohvand moddalar va jinoyatchilik bo'yicha boshqarmasi (UNODC) hisoboti.2010-yil.Mart. Vena; 13-b
4. (www.unodc.org > Afghanistan_opium_survey_2009_web)
5. U.S Department of State International Narcotics Control Strategy Report (INCSR). 2010. Mart. Vashington. 2-Jild. 45-b
6. The Soufan Group "Foreign Fighters in Syria and Irak" 2014-yil.Iyun. Nyu-York; 8-b, 17-b, 24-b (<https://thesoufancenter.org/wp-content/uploads/2017/05/TSG-Foreign-Fighters-in-Syria-Final-with-cover-rebrand-031317.pdf>)
7. United States Comission on International Religious Freedom "Annual Report of May 2011-Tajikistan" 2011-yil. 26-sentabr. (www.osce.org)
8. World Report 2022: Tajikistan / Human Rights Watch Human Rights Watch
9. Gazeta.UZ Mehr-5 va Jusan operatsiyalari haqida tayyorlagan bayonotidan. 2021-yil. Apr-30. Gazeta.uz
10. ISIS the State of Terror by Berger. 2015-yil. Nyu-York
11. Fayziyev I. Sh. & Toshpo'latov A. (2022) O'ZBEKISTONRESPUBLIKASININGMUSTAQILLIKDANOLDINGIVAKEYINGSIYOSIYHAYOTI. British Journal of Global Ecology and Sustainable DevelopmentVolume-10, Nov., 2022 31-34b
12. Toshpo'latov , A. (2023). SHAXS PSIXODIAGNOSTIKASIDA PROYEKTIV METODIKALARDAN FOYDALANISH. Евразийский журнал социальных наук, философии и культуры, 3(5 Part 2), 170–178.
13. Temirov, J. ., & Toshpo'latov , A. (2023). TYUTOR PEDAGOGIK FAOLIYATINI TASHKIL ETISHNING PSIXOLOGIK ASOSLARI. Наука и инновация, 1(28), 29–32.

14. Umarova , G. ., & Toshpo'latov , A. . (2024). Klaster tanqidiy fikrlash texnologiyasi texnikasi sifatida. Центральноазиатский журнал междисциплинарных исследований и исследований в области управления, 1(10), 49–55.
15. Toshpo'latov Abdulaziz Quvondiq o'g'li, Ummatova Zamira Atamuradovna. (2023). SHAXSLARARO MUNOSABATLARDA SHAXS AGRESSIYA. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION, 2(4), 30–31.
16. Toshpo'latov Abdulaziz Quvondiq o'g'li, Ummatova Zamira Atamuradovna. (2023). IJTIMOIIY TARMOQLARIDA "OMMAVIY MADANIYATGA" QARSHI KURASHISHNING DIDAKTIK VOSITALARI. CENTRAL ASIAN JOURNAL OF EDUCATION AND INNOVATION, 2(4), 27–29.

